

## KOMPOZITSIYA YARATISHDA TALQIN PREDMETI RANG-BARANGLIGI

**Rejepova Guzal Karimbayevna**

*Berdaq nomidagi QDU magistranti*

Yozuvchi badiiy asar yozarkan, o‘z oldiga qo‘ygan eng muhim maqsad tanlangan mavzuning nechog‘li dolzarbligi, hayotbaxshligi, zamonaviyligi, yangiligi, jamiyat hayotini ma‘lum ma‘noda qamrab olishligi bilan ham alohida mavqe kasb etadi. Shunisi muhimki, har qanday mavzu doimiy ravishda muayyan o‘zgarishlar negizida qayta kashf qilinadi. Masalan biron xalq ruhiy tabiatiga, xarakteriga mos va xos mavzular turli davrlarda yozuvchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi yoki o‘xshashlikda ifodalanishi mumkin. Negaki, mavzu yozuvchi ijodiy dunyoqarashining eng muhim qirralaridan biri sanaladi. Mavjudlik jumbog‘ini “kashf” qilish so‘z san’atining azaliy muammolaridan hisoblangani bois, mavzu va uni yuzaga chiqaruvchi g‘oya ham badiiylikning asosiy shartlarini taqozolaydi.

Nabijon Hoshimov asarlarini tahlil qilish jarayonida shu narsa aniqlandiki, kompozitsion-uslubiy o‘ziga xoslik an’ana va noan’ana uslubdagi voqeiy tasvirlar kuzatiladi. Bu jihat adibning syujetni yuzaga chiqarishda yanada qo‘l keladi. Badiiy niyat tadrijiy takomilida asosiy g‘oyaga mutanosib ravishda hayotning bir qismini kecha va bugun tarzida qayta idrok qilganligida ham yaqqol seziladi.

Binobarin, poetik tafakkur elementlari adib romanlarida qizil ip bo‘lib alohida shaklda namoyon bo‘ladi. Bugunning muammosini talqin qilarkan, realistik qarashlar zamonaviy talqinni yaratishga urinishdek taassurot uyg‘otadi kitobxonda. Ya’ni adib realistik yo‘nalishda xarakterni tipiklashtirar ekan, realistik obrazlar yangi zamon kishisi ruhiyatini chuqur falsafiy-estetik qamrovda ochib berishga odatlanib borayotganligini taqozolaydi.

Adib romanida realistik tarzida asrlar osha qadrlanib kelayotgan, e’tiqod darajasiga chiqarilgan obyektiv-naturalistik voqeliklarga ham ko‘r-ko‘rona ergashish ham uchrab turadi. “Tog‘lik qiz” romanida ana shu jihatning o‘zbek o‘quvchilariga taqdim qilinishi, biroz o‘ng‘aysizlik keltirib chiqaradi.

Asar qahramoni Hasanning sevgilisi Mushtariyning o‘z ukasi Husanga turmushga chiqishi, Hasanning Rossiyaga ishlashga borib ota-ona rizoligisiz rus qizi Svetlanaga uylanishi, bola-chaqali bo‘lishi, buni ota-onasidan va yaqinlaridan yashirishi kabi tasvirlar roman umumiy to‘qimasiga mos tushmagandek ko‘rinadi.

Masalan:

“– Ukamni... berib qo‘ydik.

– Nima?!... – dedi Mushtariy va qo‘rqinchdan ko‘zlari katta-katta ochilib o‘tirib qoldi.

Choynak esa qo‘lidan tushib ketib qattiq taraqlab ketdi. Dastasi sindi. Ichkaridan bolalarning bezovtalangan oqozi eshitildi.

– Iltimos Mushtariy, o‘zingizni qo‘lga oling, onam xaqqi, yig‘lamang,. Yig‘i-sig‘i kerakmas, o‘tinaman sizdan! Yalinib-yolvoraman! Menga ham xozir juda og‘ir, tushuning. Onamga rahmingiz kelsin. Eshitsa yuraklari dosh berolmaydi. Bu gap otamga ham og‘ir botadi.

– Mushtariy dovdirab “A-a...!” deya yig‘lamoqdan beri bo‘lib garangsiy boshladi. Xasan kelib asta uning og‘zini yopdi...

Endi oyimdan ham ayrilib qolmaylik, Mushtariy. Axir buning iloji borku. Men Xusanga o‘xshaymanku, axir!... Bir Xasan bo‘lib, bir Xusan bo‘lib kelib ketaveraman. Mayli, jiyanchalarim meni bir gali “dada”, bir gali “amaki” deb chaqira qolishsin. Maqsadim oyimizning umriga-umr qo‘shish, xolos. O‘z vaqti soati kelib oyimizning umrlari tugaganida, bu haqida hammaga ma‘lum qilamiz. So‘ngra har ikkisini uzoq safarga birga jo‘natamiz, bo‘ptimi, Mushtariy?! Siz faqat “Xo‘p” deng, iltimos. Bu sir faqat ikkimizga ma‘lum bo‘ladi. Men buning uchun bir umr uylanmasdan o‘tishga ham roziman. Jiyanlarimni o‘zim katta qilaman, sizlarni hech qachon tashlab qo‘ymayman. Hudo haqqi, qasam ichaman, – dedi Xasan va qaltirab, qahshab tili aylanmay turgan kelinposhshaning poyiga tiz cho‘kdi. – Onamning hayoti sizning qo‘lingizda, Mushtariy. Agar siz Xusanning o‘lganini xozir xabar qilib qo‘ysangiz... Xasan boshqa gapirolmadi. Uning tomog‘iga og‘ir bir narsa tiqilib kelib nafasi qisilib qolganday tuyuldi. Ko‘zlaridan to‘xtovsiz yosh oqa boshladi.

– U kishidan ham ayrilib qolamiz”<sup>1</sup> (o‘sha kitob 139-140 betlar).

Romandagi kompozitsion unsurlar noa‘naviy talqinning adib ijodida tobora uslub darajasiga ko‘tarilayotganini dalolatlaydi. Ayniqsa, romandagi “Yomon buloq” nomli rivoyatdagi matnlaro diologik munosabatli nutq asar qahramonlarining taqdirida mudhish voqea sodir bo‘lishiga ishora qiladi. Romanda “Yomon buloq” va echki suti bilan bog‘liq hikoyaning Mushtariy tilidan aytilishi nutqning obrazlilikini ta‘minlagan.

Nabijon Hoshimov noyob shoirtabiat qalbida aks-sado berayotgan ong va tuyg‘u nisbati borliqni o‘z nomi bilan ham, o‘ziga tegishli nom bilan ham atashdan cho‘chimaydi. U ayol ko‘nglida ro‘y berayotgan tizginsiz o‘zgarishlar, voqelarni o‘ziga tegishligina qalb orqali his qiladi. Qahramonlari ham shu yo‘sinda voqelikka o‘z pozitsiyasida turib baho beradi. Romandagi bitta jihatga e‘tibor beraylik: shafqatsiz

<sup>1</sup> Hoshimov N. Tog‘lik qiz. “Ijod press”, Toshkent, 2016. 139-140-betlar (keyingi o‘rinlarda “O‘sha kitob”)

taqdirdan zulm ko‘rgan bir oila taqdiri tasvirlansa, yozuvchining bu yerdagi maqsad muddaosi tarzida qabul qilish lozim. Ya’ni oila va inson qismati har bir o‘g‘il taqdirida o‘ziga xos ochqich kalit vazifasini o‘tamoqda. Qismatga ishongan, shu zaylda umr kechirgan jamiyat esa oxir-oqibat fojeaga yuz tutadi. Bu o‘rinda yozuvchi mifologik kiritma negizida jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan inson irodasini sinovdan o‘tkazadi. Natijada, qahramon ruhiy holati yanada jonli tasvirlarda namoyon bo‘ladi. Romandagi kompozitsion usul an’anadan tashqarida, kuchli dramatism, ramzlar, ishoralar, belgilar negizida yoritiladi. Bir qarashda romandagi asosiy g‘oya va mavzu inson irodasining zaif va qudratli jihatlarini sinovdan o‘tkazadi. Ojizlik va qo‘rqoqlik, mardlik hamda olijanoblik singari botiniy tuyg‘ular silsilasida o‘chta o‘g‘il taqdiri o‘quvchiga chigal vaziyatlarda o‘zining irodasiga tayanib yashash falsafasidan saboq chiqarishga undaydi.

Epik turning katta va kichik janrlarida kompozitsion tamoyil bir-biridan keskin farq qiladi. Romandagi keng qamrovlilik, dramatik ziddiyat, voqelikning ro‘y berish vaqti, xarakterlar dinamikasi, voqelikning mazmun sari o‘sib borishi tushuniladi. Ayniqsa, asarda ro‘y berayotgan voqelik siqiq holatda tasvirlansa-da, romanga xos belgilar asosiy vazifani bajargan. Pirovard natijada asarning tasvir me’yorlari yaxlit va ma’lum bir vaqtda ro‘y beradigan holat, mimika, muloqot, munozarada ochib beriladi. A.Tolstoy ta’biri bilan aytganda badiiy kompozitsiya – markaz hisoblanadi. Asarning markazida eng muhim sanalgan jihat voqelikni xuddi nur kabi o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantira oladi. Bu ko‘p hollarda roman arxitektonikasining puxta tuzilishiga keng yo‘l ochadi.

Hozirgi o‘zbek romanlarida kompozitsiya poetikasi borasida tadqiqot olib borayotgan olimlar qo‘llanilgan sarlavhani to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish muhimligini tasniflaydi. Bulardan birinchisi, matndan o‘sib chiquvchi sarlavha, ikkinchisi majoziy sarlavha, uchinchisi ruhiy-emotsional sarlavha, to‘rtinchisi xronotop sarlavha<sup>2</sup>.

Yozuvchi N.Hoshimov badiiy izlanishlarida an’anaviy epik talqin usulining yetakchilik qilishi, hamda ushbu usulda g‘oyaning mavzuga evrilishi, ya’ni romandagi asosiy maqsad-rejadan kelib chiqib sarlavhani tipiklashtirishga jiddiy e’tibor berilishi tabiiy va ishonarli idrok qilinishiga zamin hozirlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev X. Hozirgi o‘zbek romanlarida talqin muammosi. Monografiya, “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, – Toshkent: 2020.
2. Abdullayev X. Epik tafakkurda tasvir va talqin uyg‘unligi. Monografiya, “NIF MSH”, – Toshkent: 2024.

<sup>2</sup> Хамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Филол. Фанлари бўйича.фал.док. автореф. –Т: 2018. –Б.18.

3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: 2002.
4. Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Филол. Фанлари бўйича.фал.док. автореф. –Т: 2018.
5. Hoshimov N. Tog'lik qiz. "Ijod press", Toshkent, 2016.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. "Navoiy universiteti", – Toshkent: 2018.

